Ovidiy "Metamorfozalar" asaridagi ikki hikoya: Narciss va Exo hamda Piramus va Fisba hikoyalari misolida

Ilmiy rahbar: ***G.Abdullayeva***

25.178-guruh talabasi **Ismoilova Zebo**

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi rim shoiri Publius Ovidius Naso'ning "Metamorfozalar" asaridan olingan ikki hikoya -Narciss va Eko hamda Piramus va Fisba voqealari - qiyosiy tahlil qilinadi. Sevgi, yo'qotish va o'zgarish motivlari orqali ikkala hikoyaning umumiy va farqli tomonlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: "Metamorfozalar", Ovidiy, Narciss, Eko, Piramus, Fisba, sevgi, metamorfoz, qiyosiy tahlil, antik adabiyot.

Rim adabiyotining buyuk namoyandasi Publius Ovidius Naso'ning "Metamorfozalar" asari milodning birinchi asrida yaratilgan bo'lib, unda ikki yuzdan ortiq mif va afsona birlashtirilgan. Asarning asosiy g'oyasi o'zgarish - ya'ni insonning, tabiatning yoki mavjudotning boshqa shaklga ko'chishi -motivi atrofida yaratilgan. Ushbu maqolada asarning III va IV kitoblarida kelgan ikkita hikoya - Narciss va Exo hamda Piramus va Fisba -o'zaro qiyoslanadi. Ikkala hikoya ham sevgi mavzusiga bag'ishlangan, ammo bu sevgi har xil yo'l bilan fojiya bilan yakunlangan.

Narsiss va Eko hikoyasi "Metamorfozalar"ning uchinchi kitobida keladi [1, 98-b.]. Suv parisi Eko go'zal yigit Narcissni ko'rib, unga kuchli muhabbat sezadi. Ammo u ilgari Yunona'ni so'zlashi bilan chalg'itgani uchun jazolangan f-aqat boshqaning so'nggi so'zini takrorlay oladi. Narsis esa uni rad etadi. Eko bu rad javobi tufayli iztirob chekib, vujudi so'lib boradi, oxiri faqat ovoz bo'lib qoladi.Narsissning o'zi esa bir kuni buloq suvida o'z aksini ko'rib, shu aksga oshiq bo'lib qoladi. U aksini quchoqlamoqchi bo'ladi, ammo suvga tegishi bilanoq aks yo'qoladi. Shunday kunidalikda o'z aksidan ko'z uzmay o'lib ketadi va uning o'rnida sariq-oq narciss guli unib chiqadi [1, 110-b.]. Bu hikoya o'ziga muhabbatning -ya'ni o'zgani emas, faqat o'zini ko'rish istagining -insonni qanday halok etishi mumkinligini ko'rsatib beradi.

Piramus va Fisba hikoyasi "Metamorfozalar"ning to'rtinchi kitobida bayon etiladi [1, 143-b.]. Ikkala yosh Bobil shahrida qo'shni uylarda yashaydi. Ota-onalari ularning nikohiga rozi bo'lmaydi, shuning uchun ular faqat devor oralig'idagi yoriqdan shivirlashib gaplashishadi. Bir kuni tunda dalada uchrashuv belgilab, Fisba avval keladi. U sher izini ko'rib, qo'rqib qochadi va ro'molchasi tushib qoladi. Piramus kelib, qon izli ro'molchani ko'radi va Fisbani o'lgan deb o'ylab, o'zini qilichiga uradi.Fisba qaytib kelib, Piramni qon ichida ko'radi va uning ortidan o'zi ham hayotiga barham beradi [1, 152-b.]. Ularning qoni tut daraxtiga sačradi va tut mevalari o'shandan buyon qora rangga kirdi -Ovidiy bu o'zgarish bilan hikoyani asarning umumiy "metamorfoz" g'oyasiga ulab beradi. Bu hikoya tushunmovchilik va taqdir o'yini tufayli fojiyaga aylangan sevgi tasvirlanadi.Ikkala hikoyaning eng asosiy umumiy tomoni - sevgining fojia bilan tugashi. Biroq fojianing sabablari tamomila farq qiladi. Narciss hikoyasida fojia ichkaridan keladi: qahramonning o'z-o'ziga muhabbati, o'zgani qabul qila olmasligi, ularga befarqligi -bular uning halokatini

tayyorlaydi. Eko ham Narcissga bo'lgan bir tomonlama sevgi natijasida yo'q bo'ladi. Shunday qilib, bu hikoyada fojia sub'ektiv sababga -insonning ichki nuqsoniga - bog'liq.

Piramus va Fisba hikoyasida esa fojia tashqaridan keladi: ijtimoiy to'siq (ota-onalar qarshi), tasodif (tushib qolgan ro'molcha, sher izi), noto'g'ri xulosa (Piramusning shoshqaloq qarori) - bular birga chiqib, ikkisini ham halok qiladi. Ular bir-birini chin ko'ngil bilan sevadi, bu sevgida nuqson yo'q, lekin hayot - taqdir va vaziyat ularga imkon bermaydi [3, 34-b.]. Shu ma'noda Piramus va Fisba Shekspirning Romeo va Julyeta obrazlari to'g'ridan-to'g'ri manbai sifatida ko'rib chiqiladi [4, 212-b.].

Ikkinchi qiyosiy jihat - metamorfoz motivining qo'llanishi. Narciss gul bo'ladi, Eko ovozga aylanadi, tut daraxti qora meva beradi. Ammo bu o'zgarishlarning ma'nosi farqli. Narcissning gulga aylanishi -go'zallikning faqat ko'rinishdagi, ichsiz holatga tushishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Exo ovozga aylanishi -sevgining aytilmagan, javobsiz qolgan holati. Tut daraxtining qorayishi esa oshiqlar xotirasiga atab Ovidiy tomonidan berilgan ramziy hurmat, tabiatning ularning sevgisiga alomat berishi.

Uchinchi farqli jihatlariOvidiyning qahramonlarga bo'lgan munosabati. Narcissni Ovidiy unchalik hamdardlik bilan tasvirlamaydi: u boshqalarni rad etgani uchun o'zi ham rad etiladi, bu adolatli jazoning poetik ko'rinishi [2, 67-b.]. Piramus va Fisbaga esa Ovidiy aniq hamdardlik bilan qaraydi -ularning fojiasida aybdor yo'q, faqat sharoit va taqdir. Shuning uchun ularning xotirasi tabiatda abadiy qoladi, bu Ovidiyning ularga bo'lgan hurmatining ramzi.

"Metamorfozalar"dagi Narciss-Exo va Piramus-Fisba hikoyalari bir xil mavzu - sevgi va yo'qotishni ikki xil rakurs va ikki xil fojiaviy mantiq orqali kashf etadi. Birinchisida sevgisizlik va xudbinlik halok qilsa, ikkinchisida chin sevgi taqdir va sharoit tomonidan halok etiladi. Ovidiy bu ikki hikoya orqali sevgining murakkab va ko'p qirrali tabiatini, uning nafaqat baxt, балки azob va o'zgarishga ham olib keluvchi kuchini ko'rsatib beradi. Asarning umumiy g'oyasi - har narsa o'zgaradi - bu ikkala hikoyada ham metamorfoz vositasida yakunlanadi, ammo har biri o'z alohida ma'nosini saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ovidiy P. N. Metamorfozalar / Tarjimon: H. Nazir. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
2. Tronsky I. M. Antik adabiyot tarixi. — Moskva: Oliy maktab, 1983.
3. Nersesyan L. Rimskaya literatura. — Moskva: Nauka, 1977.
4. Гаспаров М. Л. Овидий в изгнании. — Москва:
5. Hardie P. Ovid's Poetics of Illusion. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002. — 345 p.